

TURLI TIZIMLI TILLAR BADIY USLUBIDA KISHILIK OLMOSHLARINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

<https://doi.org/10.70728/phil.v05.i01.008>

Sh.M.Iskandarova
FarDU
N.M.Pazilova
ADChTI

Annotatsiya: Mazkur maqolada kishilik olmoshlarining uslubiy funksiyalari, xususan, badiiy matnda voqelanishi masalalari yoritiladi. Turli tizimli tillar badiiy uslubida birinchi va ikkinchi shaxs kishilik olmoshlarining semantik, lingvomadaniy jihatlari asosida namoyon bo'lishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: badiiy matn, kishilik olmoshlari, til egasi, muloqot, ijtimoiy maqom, denotat, deytik markaz, poetik-pragmatik funksiya

FUNCTIONAL FEATURES OF PERSONAL PRONOUNS IN THE ARTISTIC STYLE OF LANGUAGES WITH DIFFERENT SYSTEMS

Sh.M.Iskandarova
Ferguson State University
N.M.Pazilova
Andijan State Institute of Foreign Languages

Abstract: This article examines the stylistic functions of personal pronouns, particularly their manifestation in literary texts. The use of first- and second-person personal pronouns in the literary style of languages with different systems is analyzed, taking into account semantic and linguistic-cultural aspects.

Keywords: literary text, personal pronouns, native speaker, communication, social status, denotation, deictic center, poetic-pragmatic function

Badiiy matnda muayyan shaxsning namoyon bo'lishi til egasining nafaqat ijtimoiy o'rni va maqomiga, balki aqliy qobiliyati, intellektual salohiyati, dunyoqarashiga ham bog'liq. Til egasi voqelikni nutq vaziyatida qanday ijtimoiy rolda bo'lishiga qarab tavsiflaydi, tabiiyki, nutqiy akt shu nutq vaziyatiga qarab paydo bo'ladi. Bunda maqsadning o'rni va ahamiyati katta bo'lib, adresant maqsadiga mos ravishda til birliklaridan, xususan, gap turlaridan foydalanadi.

Kommunikativ muloqot jarayonida soʻzlovchining lisoniy shaxs sifatida namoyon boʻlishi uning muloqotdan koʻzlagan maqsadi bilan ham bogʻliq. Soʻzlovchi biror axborotni berishi yoki oʻzi uchun muhim boʻlgan axborotni olishi mumkin. Ikkinchi holatda qoʻyilgan maqsad va tanlangan taktika birinchi holat bilan bir xil boʻlmaydi, tabiiyki, bu oʻz-oʻzidan turli-tuman lisoniy shaxslarning voqelanishiga sabab boʻladi. Bundan koʻrinib turibdiki, lisoniy shaxsning qay darajaga mansubligi uning ijtimoiy maqomi va roli bilan chambarchas bogʻliq. Ijtimoiy mansublik lisoniy shaxsning turli darajada namoyon boʻlishida asosiy omil sifatida muhim sanaladi. Ayni tushunchalar bevosita badiiy matn bilan uzviy bogʻlanadi.

Bizga maʼlumki, badiiy matnda ishtirok etuvchi leksemalarni denotatga munosabatiga koʻra nomlovchilar va ishora qiluvchilarga boʻlish mumkin. Jahon tilshunosligida ishora qiluvchilarni *deyktik soʻzlar* deb ham yuritishadi. Badiiy matnda olmoshlar deyktik markaz bilan chambarchas aloqada boʻlib, qahramonning ichki dunyosini namoyon qilishda, muayyan jarayonlar nomlarini umumlashtirishda ishtirok etadi.

OLM ichida lisoniy manzaraga ishora qiluvchi vositalar ham uchraydi. Bunday leksemalar olam uzvlarini toʻgʻridan toʻgʻri nomlamaydi. Shuning uchun ular nominatsiya darajalanishida ikkinchi va uchinchi darajalarni hosil qiladi. Ana shu belgisiga koʻra bunday leksemalar nominatsiya nazariyasida ikkilamchi nominatsiya atamasi ostida birlashtiriladi.

Badiiy uslubda kishilik olmoshlarining uslubiy xususiyatlari keng boʻlib, ular barcha tillarda rang-barang holda namoyon boʻladi. Masalan, oʻzbek tilidagi kishilik olmoshlari - *men, sen, biz, siz*, kishilik-koʻrsatish olmoshlari *u, ular* misolida bu fikrni dalillash mumkin. *Men* olmoshi oʻrnida ishlatiladigan *kamina, faqir, banda, benavo, mazlum, notavon, telba, shikasta, qul, haqir* kabi birliklar qadimdan *men* olmoshining sinonimlari boʻlib kelgan. Hozirgi adabiy tilimizda esa ular qoʻllanmaydi. Jumladan, "Oʻzbek tiliga ayrim hollarda "men" kishilik olmoshi oʻrnida "kamina", "faqir", baʼzan xotin-qizlar nutqida "ojizangiz" soʻzlari ham qoʻllangan boʻlib, bular nutqiy etiket vaziyatlariga maʼnodoshlik qatorini hosil qiladi, biroq bu soʻzlar hozirgi nutqiy jarayonlarda ancha kam qoʻllanadi"[1,141].

Oʻzbek tilida baʼzan *men* oʻrnida *sen* ham qoʻllanadi: *Sen nima uchun boshqalardan ayb axtarasan, oʻzing ham farishta emassan-ku!* Bu singari holatlar badiiy asar personajlarining oʻziga xayolan murojaati sifatida koʻzga tashlanadi. "*Sen* olmoshi badiiy matnlardagi eng faol olmoshlardan biridir. Agar uning feʼl tarkibida kelib, 2-shaxs birligini koʻrsata olishini, shu bilan u bajaradigan grammatik vazifaning feʼl zimmasiga oʻtishini hisobga oladigan boʻlsak, *sen* gap tarkibida bajaradigan leksik-grammatik vazifadan ozod boʻladi"[2,101].

Badiiy adabiyotdan olingan misollar tahlili shuni ko'rsatdiki, turli tizimli tillarda birinchi va ikkinchi shaxslarning aniqlangan ko'plik semalarining miqdoriy farqlanishlari juda katta.

O.Yusupova *senlar* kishilik olmoshining badiiy matnlardagi stilistik vazifalari to'g'risida quyidagi xulosalarni beradi: "so'zlovchining o'zidan yoshi kichiklarga nisbatan murojaatida qo'llanadi va hech qanday stilistik vazifa bajarmaydi; hozirgi o'zbek nutqida faol bo'lgan mensimaslik, bepisandlik ottenkalarini beradi; nafrat, g'azabni ifoda etadi; masxaralash, birovning ustidan kulish ottenkasini kuchaytiradi"[3,108].

Turli tizimli tillarning semiotik jihatlarini bir-biridan nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatidan ham farq qiladi; masalan, o'zbek tilida kishilik olmoshlari paradigmasida "siz-sizlar", "sen-senlar" kabi ko'plik shakllaridan hosil bo'lgan takroriy ko'plik shakllari mavjud. Ma'lum mezonlar sifatida kishilik olmoshlarining deytik markazni belgilashi, rol/maqom va masofa - yaqinlikni kodlashi, shuningdek, uslubga (badiiy, publitsistik, ilmiy/rasmiy) ko'ra ekspressivlik yoli neytrallikni me'yorlashi qabul qilinadi.

So'nggi yillarda o'zbek tilshunosligida badiiy nutqda shaxs ko'rsatkichlari va olmoshlarning poetik-pragmatik funksiyasini markazga qo'ygan bir qator yirik tadqiqotlar maydonga keldi. Tahlillar natijasida lirik asarlarda qo'llangan "men / sen / biz / u" yordamida lirik subyekt va adresatning qurilishi, "men" orqali avtopsixologik ifoda, "biz"ning inklyuziv/eksklyuziv ko'rinishlari, "sen"ning yaqinlik - masofa effektlari hamda "ul" orqali begonalashtirish strategiyalari o'ziga xos ko'rinishda asoslangan. Zamonaviy nutq odobi va etiketi bo'yicha ishlarda esa jonli o'zbek nutqida "sen/siz" tanlovining ijtimoiy masofa va rasmiylik badiiy matnda qanday berilishini ko'rsatadi.

Bevosita murojaat vositalari (masalan, undovlar)ning badiiy nutqda dialogizatsiyani kuchaytiruvchi roli, adresat konstruksiyasini o'zgartirishi ham alohida tahlil qilingan. Dramaturgiya materiallari asosidagi tadqiqotlarda esa grammatik vositalar (jumladan, shaxs ko'rsatkichlari)ning pragmatik kuchaytiruvchi sifatida ishlashi badiiy sahnalar orqali namoyon bo'ladi. Mazkur mahalliy korpus olmosh va shaxs ko'rsatkichlarini nafaqat grammatik birlik, balki kuchli stilistik-pragmatik ko'rsatkich sifatida tadqiq etish zarurligini ko'rsatadi; shu bois keyingi bo'limlarda ular subyektivlik, inklyuziya, iyerarxiya va ekspressivlik doirasida modellashtirilib, badiiy matnlar bilan bog'lab tahlil qilinadi.

Biz elementi so'zlayotgan kishi va boshqa kishilarni birgalikda olib ko'plik ma'nosini anglatishi uning leksik-grammatik ma'nosi hisoblanadi: *O'zi-ku, bizni ilm-urfonga chanqoq xalq deydi, yana mehnatkash nomehnatkash deb xalqni ajratgani nimasi!.. (A.Qahhor).*

O'zbek tilida "siz" rasmiy-hurmat vaziyatini ko'taradi: tanishuv va muzokara sahnalarida "Siz" orqali ijtimoiy masofa me'yori ko'rsatilib, muallif qahramon nutqini "yuqori vaziyat"ga ko'taradi; "sen" tengdoshlar yaqinligini namoyon qiladi. Oilaviy yoki samimiy suhbatlarda "sen" muomala doirasini toraytirib, hissiy tezlikni oshiradi. Jumladan, quyidagi she'riy parchaga e'tibor bering:

Bizlar nega mitti?

Sen nega ulkan?

Senga ulkanlikka

huquq bergan kim? (B.Iso, Tushimda Gulliver bo'lganim)

Rus tilida "вы" nazokatli murojaat bo'lsa-da, biroq o'zaro muloqotlarda masofani ushlab turadi: rasmiy yoki ichki psixologik bosim mavjud dialoglarda "вы" subyektlararo masofani belgilaydi. Ingliz tilida "you" o'quvchi/adresatni sahnaga tortadi: konfessiv yoki mushohada lavhalarida "you" deytik markazni adresat tomonga ko'chirib, ishtirok tuyg'usini kuchaytiradi [4,30]. "We" umumiy tajribani ramkalaydi: muallifiy ovoz yoki kollektiv qaror nuqtalarida "we" inkluzivlikni bildiradi. Turk tilida "siz" madaniy masofali ohangni beradi: bahsli sahnalarda "siz" adresatni "uzoq" joylashtirib, tanbeh soyasini kuchaytirishi mumkin; "sen" bevositalik va hissiy intensivlikni oshiradi: uy-ichki dialoglarda "sen" sahna ritmini tezlashtiradi. "Biz" umumiylik va birdamlikka urg'u beradi: ijtimoiy-axloqiy mavzularda "biz" jamoa subyektini quradi[5,34].

Matnda olmoshlar grammatik kategoriya sifatida cheklanmaydi, ular uslubiy indikator va sotsiopragmatik marker sifatida modellanishi, ya'ni matnning estetik-pragmatik arxitekturasini (subyektivlik, inkluziya, ekspressivlik) tizimli segmentlash orqali bayon qilinishi lozim. Keyingi qismlarda ayni mexanizmlar o'zbek, rus, turk, ingliz hamda yuqorida jamlangan yapon - xitoy - arab - koreys matnlaridan olingan real iqtiboslar asosida *kontekst* → *iqtibos* → *tahlil* ketma-ketligida yoritiladi.

Biz quyidagi jadvalda badiiy uslubda kishilik olmoshlarining funksional xususiyatlarini jamlaymiz: har bir tilda olmoshlar masofali (hurmat/vaziyat, nutq darajalari), subyektivlik (ichki monolog, fokalizatsiya, lirik "men/sen/siz") yo'nalishlarda qanday ishlatilishini va ularning kontekstda (janr/vaziyat asosida) qanday namoyon bo'lishini ko'rib chiqamiz.

Badiiy matnda kishilik olmoshlari faqat referens bo'lmay, balki ular deysisni boshqaradi, ichki monologni ochadi, o'quvchini sahnaga tortadi va personajlar orasidagi masofa - iyerarxiyani muvofiqlashtiradi. Shu bois, "I" ko'pincha psixologik ("men"ning ichki ovozi), "you" adresat va ko'pincha "sen" strategiyasi, "we" esa kollektiv ovoz va hamjihatlikni beruvchi ramz sifatida ifodalanadi. Demak, kishilik olmoshlari - ayniqsa "I / you / we" deysis va nutqning psixologik yo'nalishini boshqaradi. Dialoglarda (sen / siz; ты / вы) ijtimoiy masofa va muloqot vaziyatini kodlaydi; bu mexanizm adabiy sahnada kuchli pragmatik signal vazifasini

bajaradi[6;7]. Demak, badiiy matnda ifodalangan kishilik olmoshlarining (sen/siz; ты/вы) oppozitsiyasi ijtimoiy munosabatlarga bog'liq bo'lib, sahnaviy dinamikaga kuchli pragmatik signal beradi.

O.Yusupovaning ko'rsatishicha, "u funksional uslublar doirasida yana qo'shimcha ma'nolar ham anglatadi. Jumladan, badiiy matnlarda alohida semantik-stilistik ottenkalari bilan namoyon bo'ladi. Masalan, an'anaviy tarzda men o'rnida qo'llanadi: *Bu talafotning sababi shukim, biz inongan lashkarboshilar, mislsiz razolatga borib, shahzoda tarafiga qochib o'tmishlar... (O.Yoqubov) kabi.* Bunda bir necha stilistik nozikliklar yuzaga chiqadi:

a) kamtarlik ottenkasi: *-Bizning dargoh to'g'ri kelmasa... kamina ne qilay? (O'.Hoshimov);*

b) manmanlik, maqtanish ottenkasi: *Buyog'ini bizga qo'yib bering. Buyog'ini biz boplaymiz! (T.Murod);*

v) xokisorlik ottenkasi: *Biz bir dalada yurgan dehqon bo'lsak (T.Murod);*

g) erkalanish ottenkasi: *Jinni! Ayiq! - Shahnoza erkalanib qo'lidagi qoshiqchasi bilan yana tahdid qildi - YOmon bola bo'psiz! Bilib qo'ying, bizdayam qurol bor. Bir ursam! - Shunday deb ro'molchasi bilan mening lablarimni artib qo'ydi (O'.Hoshimov);*

d) ajratish yoki birgalik ottenkasi: *Sen bilan biz - o'zbekimiz (O'.Hoshimov); Sen bilan biz faqat «opazdavat» qilamiz, faqat ayb qilamiz (T.Murod) kabi;*

e) yaqinlik ottenkasi: *Agarchi humo qushi shahzodaning boshiga qo'nib, yurt osoyishi buzilsa ... rasadxonadagi barcha nodir kitoblar, barcha noyob qo'lyozmalarni asrab qolmoq sizni bizga yuklanibdur, birodari aziz... (O.Yoqubov).*

Birgalik va umumiylikni anglatish jarayonida biz ning semantik ko'lami yanada kengayib ketadi. U shaxsga nisbatan qo'llanish doirasidan tashqariga chiqadi va qandaydir tashkilot yoki idoralarga, ularning vakillariga ishora qiladi"[2,103].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, badiiy nutqda kishilik olmoshlari - ayniqsa I/you (men/sen-siz) va we (biz) olmoshlari - qahramonning ichki ovozi, adresatga psixologik yaqinlashuv hamda jamoaviylikni tartiblaydigan stilistik omillar bo'lib, buni real kontekstlar ham yaqqol isbotlaydi.

Ingliz zamonaviy badiiy matnlarida esa adresat "you" o'quvchini "sahnaga" tortadi va dialogik muloqotni namoyon qiladi: "Between life and death there is a library... Would you have done anything different, if you had the chance to undo your regrets?" - "you" bevosita o'quvchini fikrlashga chorlaydi, "we/your" bilan o'quvchi - muallifning bevosita kognitiv hamkorligi yuzaga keladi.

Umuman, badiiy nutqda kishilik olmoshlari matnning subyektivlik, adresatlik va ko'plik yo'nalishlarini boshqaruvchi markaziy ko'rsatkichlar sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Iskandarova Sh. O'zbek tilshunosligining dolzarb muammolari. - Farg'ona, Farg'ona nashriyoti, 2024.
2. Юсупова О. Ўзбек тилида олмошларнинг функционал-стилистик хусусиятлари. Монография. - Самарқанд, СамДУ нашри, 2017.
3. Haig M. The Midnight Library. - Edinburgh: Canongate Books, 2020. - P.30. ISBN 978-1-78689-270-6.
4. Şafak E. Aşk [The Forty Rules of Love]. - İstanbul: Doğan Kitap, 2009.
5. Brown R., Gilman A. The pronouns of power and solidarity // In: Sebeok T. A. (ed.) Style in Language. - MIT Press, 1960.
6. Матвеева Т.В. Стилистика современного русского языка: Учебник для вузов. - М.: Юрайт, 2025.
7. Xalilova M. O'zbek tili stilistikasi asoslari. - Farg'ona: Farg'ona nashriyoti, 2009.